

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО‘ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О‘ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI	32-38
<i>Asadova Ra‘no Baymanovna</i> О‘ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO‘TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О‘ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY MANBALARI ...	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra‘no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLIGIK YODGORLIGINING O‘RGANILISH TARIXI	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg‘unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIIY DAVR IQTISODIIY HAYOTINING AKS ETISHI	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O‘ZBEKISTONDA QORAKO‘LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o‘g‘li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O‘RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo‘latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI	81-88

Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich
ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich
INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

Кетманов Авазбек Маликович
КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich
KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli
MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi
MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
TASNIFI 153-160

Sharipov Komil
MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich
MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna
SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
UZBEKISTAN..... 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich
TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
XUSUSIYATLARI 197-202

<i>Рахимов Бахромжон Ибрахимович</i> ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i> IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i> CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i> INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHADAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	234-243
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOYIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i> XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI.....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i> XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i> FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAHSARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i> ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i> TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Baxronova Dilrabo</i> PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ	288-295
<i>Daliyeva Madina</i> DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES	296-300
<i>Paluanova Khalifa</i> STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES	301-306
<i>Ravshanov Maxmud</i> СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО	307-311
<i>Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna</i> SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS	312-318
<i>Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI	319-322
<i>Gulamova Dilobar Imamkulovna</i> ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI	323-326
<i>Xolmuxamedov Baxtiyor</i> TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI	327-334
<i>Chorieva Iroda Kurbonboevna</i> KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	335-339
<i>Ganiyeva Orzigul Hayriddinovna</i> XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI	340-345
<i>Rasulova Kamola</i> ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ	346-353
<i>Омонов Турғунбой</i> “СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ	354-358
<i>Хакбердиева Сайёра Фармоновна</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	359-364
<i>Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich</i> IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	365-370
<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i> CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS"	371-376
<i>Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna</i> EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES	377-381

Baymuradova Gulbahar Chari Qizi

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI 382-385

Yuldasheva Nigora Bahodirovna

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI 386-390

Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI 391-396

12.00.00 – YURIDIK FANLAR*Ruzmetov Xayruлла*

FUQAROLARNING ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ

КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ЎУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ 397-402

Ачилова Лилия Илхомовна

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ЎУҚУҚИЙ

МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ

РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА 403-410

Abdubannayev Umidjon

АХВОРОТГА ВО'ЛГАН ИНСОН НУҚУҚЛАРИНИ ТА'МИНЛАШНИНГ

РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ 411-421

Халиқулов Комолиддин Носирович

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА

ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ 422-427

Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли

ХОДИМЛАР МЕЎНАТ ЎУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА

ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 428-433

Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли

ТЕРГОВ ҚАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ

МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ 434-439

Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich

ЎТМОЙ НАВФ ГУРУНГА КИРУВЧИ YOSHLAR O'RTASIDA НУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРГА

ҚАРШИ КУРАШИШ ВО'ҲИЧА ХОРИЖИЙ ТАЖРИВА 440-446

Алиев Асилбек Кадирович

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ

АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ 447-451

Нодирахон Абдурахманова

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ

АСПЕКТЫ 452-462

Ғайбуллаев Сохибжон Ғайбуллаевич

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ 463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI*Xusanova Mohira*

ОЛИЙ О'ҚУВ YURTLARIDA ТАЛАБАЛАРНИ ВАНОЛАШ ШАКЛИНИ

ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELII	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELII	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024
Accepted: 5 November 2024
Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

SOME CONSIDERATIONS ON THE SPENDINGS OF THE BUDGET OF THE TURKESTAN GENERAL GOVERNORATE

Iriskulov Bekzod Jakhongirovich

Teacher of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Abstract: In this article, the distribution of the budget, income and spendings of the Turkestan General Governorate is revealed based on archival documents. Besides, the expenditure of the subjugation and military administration apparatus of the General Governorate, the organization of Turkestan treasury chamber and its functions are covered.

Keywords: Turkestan Military District, Turkestan treasury chamber, Military and Internal Affairs, Finance, Justice, Ministries of State Control.

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Iriskulov Bekzod Jaxongirovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston general-gubernatorligi byudjetining taqsimoti, davlat daromadlari va xarajatlari arxiv hujjatlari asosida ochib berilgan. Shuningdek, General-gubernatorlikning bo'ysundirish va harbiy boshqaruv apparati xarajatlari, Turkiston g'aznasi palatasi tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston Harbiy Okrug, Turkiston g'azna palatasi, Harbiy va Ichki ishlar, Moliya, Adliya, Davlat nazorati vazirliklari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N08>

Kirish. O'rta Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asrning 60 yillaridan 90 yillariga qadar davom etgan harbiy istilochilik urushlar natijasida egallandi. O'rta Osiyo xonliklarining nisbatdan oson egallanishida harbiy-iqtisodiy qoloq eng katta sabablardan biri bo'ldi.

Shubhasiz, imperiya ma'muriyati o'lkani o'z mustamlakasiga aylantirgandan so'ng kapitalistik munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor edi. Boisi, imperiya tomonidan o'lkani mustamlakaga aylantirish sabablaridan biri ham aynan shunda edi. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning mustamlaka etilishiga harbiy va iqtisodiy sabablari bilan bir qatorda yengil sanoat uchun paxtaga bo'lgan ehtiyoj ham muhim rol o'ynadi[1]. Imperiya ma'muriyati vakillaridan biri ta'kidlaganidek, "rus sanoatining ehtiyojlari Osiyo tomonidan qondiriladi, O'rta Osiyoning qimmatbaho tabiiy boyliklari Rossiya imperiyasi uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi[2]".

Rossiya imperiyasida 1861 yilgi islohotlardan so'ng ishlab chiqarishda kapitalistik munosabatlar shiddat bilan rivojlanib bordi. Imperiya tomonidan O'rta Osiyo hududlarining istilo etilishi kapitalizmning yangi hududlarga tarqalishiga turtki bo'ldi. O'z navbatida ko'p millatli o'lkalarning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilishi imperiya iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. "Bu Rossiya imperiyasi xalq xo'jaligi va mustamlaka davlatlarning mustahkam iqtisodiy aloqalari asosi bo'lib xizmat qildi[3]".

Muhokama. Boshqa chora-tadbirlar bilan bir qatorda Rossiya imperiyasi mustamlaka hududlarda iqtisodiy tizimni yaratishga ham alohida e'tibor qaratdi. Mazkur masalaga qaratilgan birinchi qadamlardan biri 1868 yil Iqtisodiy qo'mitaning tashkil etilishi bo'lib, qo'mita tomonidan davlat daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi Nizom ishlab chiqildi. Islohotlar davom ettirilib, 1869-yilda Turkiston g'aznasi palatasi tashkil etiladi. Palata 1869-yil 14 oktyabrda ochilgan. 1886-yilgacha Davlat palatasi ham ish haqi, ham ish haqi bo'lmagan to'lovlarni boshqargan. Palataning asosiy vazifalari davlat soliqlarini tartibga solish va yig'ish, barcha davlat muassasalari uchun kreditlarni qayta tayinlash, g'aznachilik bo'yicha umumiy hisob-kitobni yuritish va boshqalardan iborat bo'lgan.

1868-yildan boshlab palata davlat daromadlari va xarajatlari ro'yxati yuritila boshlanadi, shuningdek yillik ro'yxat ijrosi bo'yicha xisobot olib boriladi. Shu yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligi daromadlari va xarajatlari Rossiya imperiyasi ro'yxatiga kiritiladi[4]. G'azna ochilishidan oldin barcha moliyaviy operatsiyalar birinchi navbatda harbiy gubernatorida to'plangan edi. Turkiston viloyati, keyin Turkiston general-gubernatorligi huzurida moliya bo'limi va Sirdaryo viloyati hokimligida maxsus ish yuritish va buxgalteriya hisobi bo'lgan. 1889-yilda soliq inspeksiyasi joriy etildi[5].

O'rta Osiyoning istilo etilgan hududlarida daromad va xarajatlar ro'yxatining yuritilishi xonliklardagiga g'aznachilik boshqaruviga nisbatan keskin o'zgarish yasadi. O'rta Osiyo xonliklarida shu davrgacha byudjet, kirim-chiqim kabi tushunchalarga faqat hukumdorning manfaati nuqtai-nazaridan ahamiyat berilib, davlat xazinasi xonning shaxsiy mulki hisoblangan.

Aytish joiz, Turkiston general-gubernatorligida davlat xarajatlari va daromadlari ro'yxati umuman olganda davlat byudjeti shakllantirilgan bo'lsa-da, u o'z xususiyatiga ko'ra Turkiston o'lkasi aholisi uchun emas balki, imperiya manfaatlariga xizmat qilgan.

Natijalar. Turkiston genaral-gubernatorligining 1868-yildan 1913-yilga qadar daromad va harajatlari quyidagicha bo'lgan[6] (barcha raqamlar ming rubl miqdorida).

1-jadval

Yillar	Daromadlar	Xarajatlar
1868	-	3791,8
1873	2509,0	8131,2
1878	3661,8	11757,4
1883	-	-
1888	6408,1	9773,6
1893	8063,7	9956,3
1898	8941,0	12272,3
1903	11756,4	21965,5
1908	16348,7	16086,7
1913	23049,2	23162,7

Aytish joiz, Turkiston general-gubernatorligining hisob-kitoblaridagi asosiy xarajatlar zo'rovonlik apparati hisobiga o'sib boruvchi xarajatlar edi. Bu fikrni quyidagi jadvaldagi raqamlar ham aniq ko'rsatadi.

Harbiy bo'linmalarining xarajatlari

2-jadval

Yillar	Harbiy bo'linmalar xarajatlari	Yillar	Harbiy bo'linmalar xarajatlari
1863	3762,3	1893	7941,8
1873	7127,6	1896	7864,7
1878	10468,4	1903	8940,1
1888	7109,4	1908	10934,4
		1913	12373,5

Ma'lumki, Rossiya imperiyasi hududi 1862–1865 yillarda harbiy vazir D.Milyutinning tashabbusi bilan harbiy okruglarga taqsimlab chiqilib, Turkistonning imperiya tomonidan dastlabki egallab olingan hududlari va undagi harbiy qismlar Orenburg harbiy okrugi tarkibiga kiritildi[7]. Lekin imperiya Orenburgning o'lkadan uzoqligi, Turkistonni to'la egallab, o'z ta'sirida saqlab turish, boshqa davlatlarning Turkistonga bo'ladigan da'volariga qarshi tura olish uchun o'lkaning o'zida markazlashgan harbiy boshqaruv va muntazam qo'shinga ehtiyoj sezgan. Shularni inobatga olib 1867 yil 13 iyuldagi Aleksandr II ning 44844-sonli buyrug'iga binoan alohida Turkiston Harbiy Okrug tashkil etildi. Harbiy Okrug tashkil etilgan vaqtda qurolli kuchlar tarkibida 13 ta batalyon, 30 ta kazaklar yuzligi, artilleriya brigadasi, sapyorlar rotasi, 5 ta harbiy kema mavjud bo'lib, ularning o'zak qismi (10 ta batalyon) Sirdaryo viloyatida joylashgan edi. Sirdaryodagi qo'shinlar tarkibi 1869 yil 17506 nafar harbiydan iborat edi: piyodalar 258 ta ofitser, 12138 ta oddiy askar, otlilar 89 ta ofitser, 4693 ta kazak, Orol flotida 8 ta ofitser va 320 ta askar xizmat qilgan[8].

1879 yilga kelib Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari soni XIX asrdagi eng katta miqdorga yetadi. Shu yili okrugda 25 ta batalyon, Orenburg, Sibir, Yettisuv, Ural kazaklarining 8 ta polki va 88 ta artilleriya to'plari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 47 867 ta harbiy[8]: 1402 ta ofitser va 46 465 nafar askarlar xizmat qilgan. XIX asrning 80-yillarida Turkistondagi harbiylar miqdori kamayib borib 1887 yil 30012, 1889 yil 27484 nafarga tushib qoladi. 1896 yilga kelib Turkiston harbiy okrugida 1 ta o'qchi va 3 ta liniya brigadasi, 5 ta kadr batalyonlari, 5 ta mahalliy komanda, 1 ta sapyor batalyoni, 4 ta kazaklar polki, 9 ta artilleriya batareyasi, 4 ta qal'a artilleriya rotalari mavjud edi[9]. Harbiylarning ko'payishi o'z navbatida general-gubernatorlik davlat byudjetining katta qismini harbiy ishlarga sarfalanishiga sabab bo'ldi. Buni imperiyaning boshqa davlat organlariga nisbatdan harbiy vazirlikka ajratilgan mablag'lar misolida ham ko'rish mumkin. Harbiy vazirlikning jami xarajatlari va Ichki ishlar, Moliya, Adliya, Davlat nazorati vazirliklari umumiy xarajatlar miqdori quyidagicha:

3-jadval

Yillar	Harbiy vazirlik xarajatlari (foizda)	Ichki ishlar, Moliya, Adliya, Davlat nazorati vazirliklari xarajatlari (foizda)	Vazirliklarga ajratilgan jami mablag'lar (foizda)
1868	99,2	0,7	99.9
1873	87,7	11,9	99.6

1878	89,0	10,0	99,0
1883	-	-	-
1888	72,6	23,7	96,3
1893	79,7	17,7	97,4
1896	64,0	23,6	87,6
1899	72,0	21,7	94,6
1900	71,6	19,6	91,2
1901	69,5	19,9	89,4
1902	43,1	13,3	56,4
1903	40,7	13,5	54,2
1904	36,7	11,4	48,1
1905	48,3	13,2	61,5
1906	66,1	19,6	84,7
1907	69,9	20,2	90,1
1908	67,9	22,3	90,2
1909	65,9	23,3	89,2
1910	66,5	21,9	88,4
1911	64,3	22,4	86,7
1912	57,6	21,1	78,7
1913	53,4	21,5	74,9

Jadvaldagi ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, imperiyaning o'lkadagi harbiy sohaga ajratgan xarajatlari nafaqat Turkistonni bosib olish davrida balki undan keyingi yillarda yuqoriligicha qolgan. Bu jihatni Rossiya imperiyasi Turkistonni o'z tarkibida ushlab turish uchun doimiy shay harbiy vaziyatda turishga majbur bo'lganligi bilan izohlash mumkin.

General-gubernatorlikning bo'ysundirish va harbiy boshqaruv apparati xarajatlari 40 yil davomida ya'ni 1868 yildan 1913 yilga qadar 80%dan yuqori edi (1881–1886 yillar bo'yicha ma'lumotlar mavjud emas). Faqatgina 1902–1905 yillar davomida 60%dan kam mablag' ajratilgan. Boshqarmaga ajratilgan mag'balag'larning kamayishiga asosiy sabab temir yo'l qurilishiga, harbiy-strategik inshootlarni bunyod etilishiga mablag' ajratilishi bilan izohlash mumkin. Taqqoslash uchun general-gubernatorlik xarajatlarining 90 % harbiy xarajatlar bilan qo'shib xisoblansa, so'nggi yillardagi zo'rovonlik, bostirish va eksplutatsiya apparatiga to'g'ri keladi. Yana shuni e'tiborga olish zarurki, imperiya markaziy ma'muriyati Turkiston general gubernatorligida o'lkani boshqarishni harbiy boshliqlar qo'liga topshirgan edi. 1886 yil Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom qabul qilinib, Nizomga ko'ra, o'lka boshqaruvi imperator tomonidan tayinlangan va lavozimidan ozod etilgan general-gubernator bo'ysunadigan Harbiy vazirlikning yurisdiksiyasi ostida qoldirildi. Shu munosabat bilan 2-Davlat Dumasi byudjet komissiyasi hisoboti loyihasida shunday deyilgan edi: "bu boy hudud Rossiyaga qo'shilganiga o'nlab yillar o'tdi va u hozirgacha harbiy boshqaruv asosida boshqarilmoqda"[10]. Turkiston o'lkasining harbiy vazirlikda bo'lgan muddatining o'zi ham bu boshqaruv tizimining muvaffaqiyatsizligidan dalolat beradi[11]. Imperiya hukumatining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati uning umumiy xarajatlari hajmi va dinamikasida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonni bosib olgandan so'ng unda mustamlakachilik va shafqatsiz milliy zulm rejimini o'rnatdi. Bu mustamlakachilik

siyosati zo‘ravonlik apparatiga sarflangan mablag‘larda ham yaqqol aks etgan. Mutlaq ma’noda harbiy-idoraviy tuzilmalarning xarajatlari O‘rta Osiyoni bosib olishi bilan nafaqat kamaymadi, balki, aksincha, barqaror o‘sib bordi. To‘g‘ri, ularning ulushini kamaytirish tendensiyalari kuzatildi, ammo boshqa tomondan, boshqaruv apparati xarajatlari ulushining oshib borish jarayoni ham kuzatildi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. История народов Узбекистана. т.ИИ. – Т: изд. АН УзССР, 1947. – С. 227.
2. Экономические задача России в Средне-азиатских владениях. – Т., 1891. – С. 188.
3. Лищенко И. Многонациональная системе российского капитализма и образование СССР // Вестники СССР –№1. – 1948. – С. 84.
4. Блюх И. Финансы России 19 столетия. История и статистика. Т.3. – СПб., 1882. – С. 207.
5. ЎзМА, И.9-фонд, 3-рўйхат, 99-иш, 135-варақ.
6. Статистический ежегодник Турккеспублики 1917–1923 гг. Т.2,7. – Т: издание ТЭС, 1924г. –С. 381-386.
7. Vohodirov I. Turkiston harbiy okrugining o‘lkada mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi faoliyati (1867–1917-yy.): Tarix fanlari bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2023. 13-bet.
8. ЎзМА, И.1396-фонд, 2-рўйхат, 6-иш, 233-варақ
9. ЎзМА, И.1396-фонд, 2-рўйхат, 293-иш, 15-17-варақлар.
10. Логанов Г. Россия в Средней Азии / Вопросы колонизации: периодический сборник / под ред. Г.Ф.Чиркина и Н.А.Гаврилова. – № 4. – 1909. – С. 35
11. Меряхине Г. Бюджет и национальный вопрос в СССР. – М: Госфиниздат, 1939. – С. 11.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).